

IRODA VA UNING SHAXS HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Yuldashev Dilshodjon Mamurovich,
Qo‘qon davlat universiteti dosent v.b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18695748>

Annotatsiya. Har bir irodaviy jarayon ma'lum bir maqsad asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun biz irodaviy jarayonlarning boshlanishi sifatida maqsad qo'yishni olamiz. Maqsad deganda biz odam nima qilish kerakligini, nimaga erishish kerakligini va qanday qiyinchiliklarni yengishi lozimligini anglashini tushunamiz. Bu maqsadlarni biz aniqlashda biologik va ruhiy ehtiyojlar asosida amalga oshiramiz.

Kalit so'zlar: *Mativatsiya, inson, axloq, axloqiy sifatlar, irodaviy sifatlar, dunyoqarash, ehtiyojlar, qo'rquv.*

Abstract. Each volitional process is carried out based on a certain goal. Therefore, we take goal setting as the beginning of volitional processes. By goal we mean that a person understands what to do, what to achieve and what difficulties to overcome. We define these goals based on biological and psychological needs.

Keywords: *Motivation, human, morality, moral qualities, voluntary qualities, outlook, desires, fear.*

Аннотация. Каждый волевой процесс осуществляется на основе конкретной цели. Поэтому мы рассматриваем постановку целей как начало волевых процессов. Под целью мы понимаем, что человек должен делать, чего он должен достичь и какие трудности он должен преодолеть. При определении этих целей мы опираемся на биологические и духовные потребности.

Ключевые слова: *Мотивация, человек, мораль, моральные качества, волевые качества, мировоззрение, потребности, страх.*

Kirish. Inson hayoti doimiy tanlovlar, sinovlar va qarorlar jarayonidan iboratdir. Har bir shaxs o'z oldiga maqsad qo'yadi, unga erishish yo'lida turli ichki va tashqi to'siqlarga duch keladi. Ana shunday vaziyatlarda insonning muvaffaqiyati, barqarorligi va hayotiy pozitsiyasi ko'p jihatdan uning irodaviy sifatlariga bog'liq bo'ladi. Iroda – bu shaxsning ongli ravishda o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, maqsad sari qat'iyat bilan intilishi va qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatidir.

Psixologiya fanida iroda shaxs tuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Xususan, Lev Vygotskiy oliy psixik funksiyalar, jumladan, irodaviy harakatlar ham ijtimoiy muhit va tarbiya ta'sirida shakllanishini ta'kidlagan. Demak, iroda insonning tug'ma xususiyati emas, balki ijtimoiy tajriba, ta'lim va o'z ustida ishlash jarayonida rivojlanadigan sifatdir.

Zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsdan mustaqil fikrlash, tez va to'g'ri qaror qabul qilish, stressli vaziyatlarda o'zini boshqara bilish kabi fazilatlar talab etilmoqda. Bunday sifatlarning negizida esa kuchli iroda yotadi. Irodasiz inson tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan bo'ladi, hissiyotlarga berilib noto'g'ri qarorlar qabul qilishi mumkin. Aksincha, irodasi mustahkam shaxs o'z maqsadini aniq belgilaydi, motivlarini anglaydi va qiyinchiliklarga qaramay harakatni davom ettiradi.

“Inson dunyoga kelibdiki, kurashib yashaydi. Hayotimiz davomida turli xil sinovlarga duch kelamiz”

Bularni yengish uchun bizda sabr toqat matonat bo‘lishi zarur. Men o‘z maqolamni mavzusini tanlashda Hayotimizda eng zarur bo‘lgan iroda kuchi mavzusini tanladim. Iroda haqida so‘z ketar ekan Elchin safarlining quyidagi jumlasini yodga tushdi. “Hayotimizda turli sinovlardan iborat. Ba'zan yiqilsak tubsiz jarga tushadigandek. QO‘RQMANG!!! Oldinga yuravering, sinovlar bizni barbod qilish uchun emas saboq olib yuksalishimiz uchun beriladi.

Hayotimizda biz kutmagan holda ixtiyorsiz ravishda diqqatimizni tortuvchi jarayonlar ko‘p sodir bo‘ladi. Misol uchun: Yo‘lda ketayotganingizda mashinaning to‘satdan signal chalishi, ma’ruza paytida kimningdir telefoni jiringlashi, baland ovozda gapirayotgan sotuvchi yoki noodatiy kiyingan kishi. Bularning bari sizda ixtiyorsiz diqqatingizni tortadi. Endi biz o‘zimiz zo‘r berib ixtiyoriy ravishda diqqatimizni qaratadigan holatlar ham bo‘ladi. Ma’ruzani tinglab o‘tirish, topshiriqlarni bajarishingiz, biror bir mashg‘ulot yoki aqliy faoliyat bilan shug‘ullanishingiz sizda irodaviy zo‘r berishni talab qiladi. Fikrimiz avvalida Iroda haqida tushunchaga ega bo‘lib olsak. Iroda bu oldindan qo‘yilgan maqsadga erishish vositalarini aniqlab, ularni bajarishda ongli ravishda zo‘r berishga aytiladi.

Adabiyotlar tahlili. Iroda muammosi umumiy psixologiya doirasida keng o‘rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Irodaviy harakatlarning mohiyati, tuzilishi va shakllanish bosqichlari haqida bir qator ilmiy manbalarda batafsil ma’lumot berilgan.

F.I. Xaydarov va N.I. Xalilova umumiy psixologiya doirasida irodaning shaxs faoliyatidagi o‘rni, irodaviy zo‘r berish jarayoni hamda maqsadga yo‘naltirilgan harakat mexanizmlarini izohlaydilar. Mualliflar iroda ongli ravishda boshqariladigan faoliyat turi ekanligini, u motivlar kurashi jarayonida shakllanishini ta’kidlaydi [1, 215–220-betlar]. Shuningdek, asarda ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar o‘rtasidagi farqlar ham ilmiy asosda yoritilgan [1, 222-bet].

Z. Ibodullayev tibbiyot psixologiyasi nuqtai nazaridan irodaning inson ruhiy salomatligidagi ahamiyatini ochib beradi. Muallifning fikricha, irodaviy barqarorlik stress, qo‘rquv va ichki ziddiyatlarni yengishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [2, 134–136-betlar]. Asarda irodasizlikning ayrim deviant xulq shakllari bilan bog‘liqligi ham ko‘rsatib o‘tilgan [2, 140-bet].

A. Yuldashev insonning tabiat bilan uyg‘un yashashi va o‘z organizmini boshqarish jarayonida ruhiy barqarorlik hamda irodaning ahamiyatini ta’kidlaydi. Muallif insonning o‘z ustida ishlashi, zararli odatlardan voz kechishi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishida irodaviy sifatlar hal qiluvchi rol o‘ynashini qayd etadi [3, 57–60-betlar].

V. Sinelnikov shaxsning ong osti jarayonlari va ichki ishonchlari inson xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatishini bayon qiladi. Unga ko‘ra, insonning irodaviy qarorlari ko‘pincha ichki qo‘rquv va cheklovchi ishonchlar bilan kurash jarayonida shakllanadi [4,

88–92-betlar]. Bu yondashuv irodaning psixologik va ma'naviy jihatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, L.S. Vygotskiy oliy psixik funksiyalar, jumladan, irodaviy harakatlarning ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishini ilmiy asoslagan. U irodani shaxsning o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyati sifatida talqin qiladi [6, 150–155-betlar]. Bu yondashuv irodaning ijtimoiy-tarbiyaviy omillar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda iroda va uning shaxs hayotidagi ahamiyatini yoritishda umumilmiy va maxsus psixologik metodlardan foydalanildi. Jumladan, muammoni tahlil qilishda ilmiy adabiyotlarni o'rganish va nazariy tahlil metodi qo'llanildi. Iroda tushunchasining mazmuni, tuzilishi va funksiyalari psixologik manbalar asosida tizimli yondashuv orqali tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida shuningdek, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda mantiqiy xulosa chiqarish metodlaridan foydalanildi. Irodaviy sifatlarning shakllanishi, motiv va maqsad bilan o'zaro bog'liqligi konseptual jihatdan tahlil etildi. Shaxsning irodaviy jarayonlari biologik, psixologik va ijtimoiy omillar birligi asosida o'rganildi.

Metodologik asos sifatida shaxs faoliyati nazariyasi, motivatsiya konsepsiyasi hamda irodaviy harakatlarning ongli boshqaruv tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot natijalari nazariy umumlashtirish asosida bayon qilindi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Har bir irodaviy jarayon ma'lum bir maqsad asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun biz irodaviy jarayonlarning boshlanishi sifatida maqsad qo'yishni olamiz. Maqsad deganda biz odam nima qilish kerakligini, nimaga erishish kerakligini va qanday qiyinchiliklarni yengishi lozimligini anglashini tushunamiz. Bu maqsadlarni biz aniqlashda biologik va ruhiy ehtiyojlar asosida amalga oshiramiz. Har bir ehtiyojni qondirish uchun intilish paydo bo'ladi.

Intilish fazalar:

- > Istak
- > Tilak
- > Xohish

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda sodir bo'ladigan holatlarda turli farqlar bo'ladi. Ixtiyoriy harakatlarimizning karakterli tomoni ularda motivlar asosida amalga oshiriladi. Motiv bu insonlarni maqsadi tomon harakatga keltiruvchi kuchdir. Bu motivlar nimaga shu maqsadni qo'ygani, nega aynan shu maqsadni va shu yo'lni tanlaganiga javob bo'ladi. Motivlar hissiyotlarimiz va aqlimiz orasida doima kurashda bo'ladi. Bulardan ko'proq hissiyotlarimiz shaxs faolligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu vaziyatda biz irodaviy zo'r berishga majbur bo'lamiz shundagina ko'zlangan maqsadga yetish mumkin.

Har bir maqsadga yetishish yo'lida inson o'zidagi ichki va tashqi to'siqlarni yengishi zarur. Bularni Iroda sarf etmasdan yengib bo'lmaydi. Ichki kurashlarga bizdagi yalqovlik, havvoyi nafmiz yo'lidagi behuda harakatlar, qo'rquv hisi, maqsad yo'lidagi to'siqlarga sabr etish bularning bari ichki to'siqlardir. Bularni yengib o'tishda bizdan katta kuch talab etiladi. Tashqi to'siqlar (suv, olov yomon ob-havo va hokazolar) insonlar har doim o'zlari uchun moslashtirib sharoit yaratishgan. Har qanday yangi kashfiyot yaratgan inson shu kashfiyotni yaratish davomida turli xil qiyinchiliklarga duch keladi. Bularni yengishda iroda kuchini sarf etmoq zarur bo'ladi. Demak, har bir buyuk kashfiyot ortida irodasi kuchli inson turgan bo'ladi. Ahir aytishadiku; biror nimaga erishish uchun nimanidir tark etishga to'g'ri keladi deb, mana shut ark etish jarayonida bizga iroda kuchi kerak bo'ladi. Irodamizning mustahkam bo'lishi maqsadlarimizni to'g'ri tanlashga, uni amalga oshirish yo'lidagi to'siqlarni yengishga yordam beradi.

Endi biz siz bilan maqsad tanlashning oxiri ya'ni bir qarorga kelish haqida biroz so'z yuritamiz. Bir qarorga kelish har bir insonda har xil holatda amalga oshadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki irodasi kuchli insonlar o'z maqsa va motivlarini anglagan holda juda tez bir qarorga kelishadi. Buni biz qat'iyat deb ataymiz. Boshqa hollarda esa, motivlar kurashi uzoq, vaqtga cho'zilib ketadi va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu qat'iyatsizlikdir. Qat'iyatsizlik oqibatida bizda juda ham yomon odat ya'ni subutsizlik vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun biz qarorga kelishimizda har tamonlama mustahkam fikr yuritib o'z motivlarimizni to'g'ri anglagan holda, irodaviy zo'r berib kelishimiz darkor.

Iroda har bir insonda turli darajadagi kuchga egadir. Biz insonlar hissiyotlarini ta'riflaganimizda beqaror, subutsiz, qo'rquq yoki dadil jasoratli sabr toqatli kabi sifatlarni ishlatamiz. Beqarorlik, subutsizlik, qo'rquqlik kabi sifatlari irodasi sust insonlarga nisbatan ishlatiladi. Dadil, jasoratli, sabr toqatli kabi sifatlari es Irodasi kuchli insonlarga beriladi. Yana biz irodasi kuchli va irodasi kuchsiz insonlarni aniqlashimizda quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi;

- > O'zini tuta bilish
- > Jasurlik
- > Matonat
- > Chiqamlilik

Irodamizning qay darajada ekanligini axloqiy sifatlari ham xattoki namoyon qiladi. Irodasi sust insonlarning axloqiy jihatida (o'zini boshqara olmasdan ko'r-ko'rona harakat qilish kabi holatlar kuzatiladi. O'g'rilik, narkamanlik, firibgarlik bularning bari inson o'zini iroda qilaolmasligidan kelib chiqadi desaak xato bo'lmaydi. Sigaret yoki ichkiliklarni tashlay olmaslik ham irodasi sust ekanidan dalolat beradi. Irodasi kuchli inson deyarli bunday holatlarga duch kelmaydi, yoki bularni vaqtida to'xtata oladi. Irodasiga zo'r berib o'zini o'nglay oladi. Irodasi kuchli inson mardlik jasurlik qo'rquvni yengib oldinga harakat qilish hislatlari boladi.

Iroda shaxs psixikasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u insonning ongli faoliyatini boshqaruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida iroda muammosi chuqur o'rganilgan bo'lib, xususan, Lev Vygotskiy insonning oliy psixik funksiyalari ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishini ta'kidlagan. Uning fikricha, irodaviy harakatlar dastlab tashqi nazorat asosida yuzaga keladi, keyinchalik esa ichki nazorat va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasiga aylanadi. Demak, iroda tug'ma emas, balki tarbiya va ijtimoiy tajriba jarayonida shakllanadigan sifatdir.

Irodaning fiziologik asoslari ham mavjud bo'lib, insonning bosh miya po'stlog'i, ayniqsa, peshona qismi ongli qaror qabul qilish va xulq-atvorni nazorat qilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, irodaviy sifatlar rivojlanishi bevosita tafakkur, xotira, diqqat va hissiy barqarorlik bilan uzviy bog'liqdir. Iroda kuchi kuchli bo'lgan shaxs stressli vaziyatlarda o'zini yo'qotmaydi, hissiyotlarini nazorat qila oladi va vaziyatni ongli tahlil asosida baholaydi.

Zamonaviy psixologiyada iroda ko'pincha "o'z-o'zini boshqarish" va "kechiktirilgan qoniqish" tushunchalari bilan bog'lanadi. Masalan, Walter Mischel tomonidan o'tkazilgan mashhur "marshmallow tajribasi" bolalarda sabr-toqat va o'zini tuta bilish sifatleri kelajakdagi muvaffaqiyat bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatgan. Bu tadqiqot irodaviy sifatlar nafaqat axloqiy, balki hayotiy muvaffaqiyat omili ekanligini ilmiy asoslab berdi.

Iroda shaxsning motivatsion sohasi bilan ham chambarchas bog'liq. Motiv kuchli bo'lmagan joyda iroda ham sust bo'ladi. Shu bois inson o'z oldiga qo'ygan maqsadining mazmunini chuqur anglab yetishi zarur. Maqsad shaxsiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgandagina barqaror irodaviy harakat yuzaga keladi. Aks holda, tashqi bosim yoki vaqtinchalik hissiyot asosida qabul qilingan qaror uzoq davom etmaydi.

Iroda shakllanishida oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitning roli beqiyosdir. Bolalik davridan boshlab mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish, mas'uliyat yuklash, bajarilgan ishni oxiriga yetkazishga rag'batlantirish irodaviy sifatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, sport bilan shug'ullanish, murakkab vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish, kun tartibiga amal qilish kabi odatlar ham irodani chiniqtiradi.

Irodaviy sifatlar shaxsning axloqiy qiyofasida ham namoyon bo'ladi. Chunki axloqiy me'yorlarga rioya qilish ko'pincha ichki kurashni talab etadi. Masalan, oson yo'l bilan manfaat ko'rish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, halollikni tanlash kuchli iroda va mustahkam dunyoqarash natijasidir. Shu ma'noda iroda insonning nafaqat shaxsiy muvaffaqiyati, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatini ham belgilab beradi.

Iroda – bu shaxsning o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish, maqsad sari qat'iy intilish va qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatidir. U biologik ehtiyojlardan yuqori turuvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgandagina barkamol shaxs shakllanadi. Iroda insonni tasodiflar oqimida emas, balki ongli ravishda tanlangan hayot yo'lida harakat qilishga undaydi. Shuning uchun ham iroda shaxs hayotining poydevori, muvaffaqiyatining asosi va komillikka eltuvchi kuchdir.

Xulosa. Irodaga ta'rif berar ekanmiz bir so'z bilan aytsak, Iroda bu shunchaki istaklarni amalga oshirish uchun kerakli xususiyat emas, balki ham uni bajarib, vaqti kelgansa uni to'xtatib, kerakli vaqtdan undan voz kechish hamdir. So'zimizni yakunlar ekanmiz biz yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilamiz. Har bir shaxs o'zi xohlagan narsalarga, o'zi xohlagan hayotga yetishi uchun harakat qilmog'i iroda kuchini sarf etmog'i lozim. Iroda sifatlarini shakllantirishi darkor. Irodangizni mustahkam qilshga harakat qiling, o'zingizni qiziqqan xatto qiziqmagan mashg'ulotlar bilan ham shug'ullanib o'z ustingizda ishlashga harakat qiling shundagina o'zingiz xohlagan marraga yetishingiz mumkin. Irodangizni mustahkam qiling, sizning muvaffaqiyatlarga erishishingiz yoki imkoniyat-laringizni yoq qilishingiz o'zingizga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2009. – 320 b.
2. Ibodullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 256 b.
3. Yuldashev A. Tabiatning o'zi tabib. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – 180 b.
4. Sinelnikov V. Dardingni sev (ong osti sirlari). – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2019. – 304 b.
5. Kamolova A. Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasi manbalarini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari // *Science and Education Scientific Journal*. – 2022. – Vol. 3, Issue 12. – B. 590–592.
6. Lev Vygotskiy. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986. – 287 p.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934